“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



Ta’lim muassasalarida qonunchilik ijrosiga prokuror nazoratini joriy etishning huquqiy asoslari

Munira Boboumarova,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti
Huquqshunos
e-mail: munira.987@icloud.com

Аннотация. Mazkur maqolada ta’lim muassasalarida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining joriy etilishi va huquqiy asoslarining o‘ziga xos xususiyatlari va korrelatsiyaviy tahlil usulidan foydalangan holda o‘rganib chiqilib, tizim salohiyatini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар. prokuror nazorati, prokuratura organlari, voyaga yetmaganlar, maxsus huquqiy makomi prinsipi, preventiv choralar, xalqaro standart, normativ-huquqiy qoidalar

Аннотация. В данной статье с помощью метода корреляционного анализа исследуются реализация прокурорского контроля за исполнением законодательства в образовательных учреждениях и особенности его правовой основы, а также разрабатываются предложения, направленные на повышение потенциала системы.

Ключевые слова. прокурорский надзор, прокуратура, несовершеннолетние, принцип особого правового статуса, меры пресечения, международный стандарт, нормативные правовые положения

Annotation. In this article, the implementation of the prosecutor's control over the implementation of legislation in educational institutions and the specific features of its legal basis are studied using the method of correlational analysis, and proposals aimed at increasing the potential of the system are developed.

Keywords. prosecutor's supervision, prosecutor's office, minors, principle of special legal status, preventive measures, international standard, regulatory legal provisions.

So‘nggi yillarda ta’lim muassasalarida huquqni muhofaza qilish organlarining ahamiyati ortib borayotgani to‘g‘ri nazorat tartiblari va qonunchilik talablarga rioya etilishini ta’minlash uchun keng qamrovli huquqiy asoslar zarurligini ta’kidladi. Bu ta’lim sohasida

huquq-tartibga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda prokurorlarning muhim rolini ko‘rsatdi. “Prokuror nazorati” tushunchasi ta’lim muassasalarining qonuniy va adolatli sharoitlarda ishlashini ta’minlovchi muhim huquqiy mexanizmdir. Ushbu nazoratning huquqiy asoslarini tushunish bir qancha sabablarga ko‘ra juda muhimdir, ularning barchasi ta’lim tizimlarining yaxlitligi va xavfsizligini ta’minlashda uning ahamiyatini ko‘rsatib o‘tadi.

Xususan, prokuror nazoratining huquqiy asoslarini o‘rganishning asosiy sabablaridan biri uning o‘quvchilar, pedagoglar va ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi barcha xodimlarning huquqlarini himoya qilishdagi roli hisoblanadi. Ta’lim muassasaları o‘quvchilar va xodimlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan konstitutsiyaviy huquqlardan tortib, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarigacha bo‘lgan ko‘plab huquqiy qoidalar bilan tartibga solinadi. Prokuror nazorati ushbu huquqlarga rioya etilishini ta’minlaydi, ta’lim tizimida shaxslarning farovonligiga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan har qanday vakolatni suiiste’mol qilish holatlarini oldini oladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mazkur sohada prokuror nazoratini amalga oshirishni huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan bir necha normativ-huquqiy hujjatlar mavjud bo‘lib, ularning eng asosiysi Konstitutsiya hisoblanadi. Konstitutsiya yuridik ahamiyati jihatidan eng muhim va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, “Konstitutsiyaviy normalar, unda belgilangan qoidalar, printsiplar mamlakat huquqiy bazasini tashkil etadi”[1].

Jumladan, mamlakatimiz Konstitutsiyasida O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidanNazorni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshirishi to‘g‘risidagi normalarning belgilanishi ham umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishda uning huquqiy asosi sifatida Konstitutsiyaning o‘rni beqiyosligini anglatadi.

Asosiy qonun o‘z mohiyat-e’tibori bilan har qanday demokratik jamiyatning bosh belgilaridan biri bo‘lib, unda inson, shaxs va jamiyatning huquqiy jihatlari, davlat hokimiyatining tuzilishi va uning idoralarining faoliyatini tashkil etishning mezoniy qoidalari ifoda etiladi.

Shu sababli barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiyaga muvofiq chiqarilishi lozim bo‘ladi. Bu borada, A.Ochilov[2] ning fikricha, “O‘zbekiston Konstitutsiyasi yoshlar huquqlarini himoya qilishda oliy yuridik kuchga ega hujjatdir”. Ushbu fikrlarga qo‘shilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi prokuratura organlari uchun umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishda eng muhim ahamiyatga ega hujjat hisoblanadi.

Xususan, 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish yo‘li bilan yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning XIV bobi “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlanishi, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi, ularning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘ligini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishiga oid normalarning bosh qomusimizda aks ettirilgani bugungi kunda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari yoshlariga bo‘lgan e’tiborning kuchayganini anglatadi.

Ta’lim muassasalarida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etishda, O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni bevosita huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur qonunning 3-moddasiga asosan, prokuratura organlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritish tartibi, shuningdek ularning vakolatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi[3]. Shuningdek, ushbu qonunda prokuratura organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, qonunchilik ijrosi ustidan nazorat, uning predmeti, qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishda prokurorning vakolatlari belgilab berilgan.

Qayd etish lozimki, ta’lim sohasi keng qamrovli bo‘lib, unga voyaga yetmaganlar, ta’lim muassasalari faoliyatini tartibga solishga oid qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar prokuratura organlariga qo‘shimcha vazifa yuklaydi. Darhaqiqat, ta’lim muassasalari faoliyati, balki, prokuror nazoratining barcha yo‘nalishlarida qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonun, uning asosida qabul qilingan Bosh prokurorning sohaviy buyruqlari bevosita huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining boshqa huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik, Oila kodekslari, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi (2001), “Ta’lim to‘g‘risida”gi (2020) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi (2017), “Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta’minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi (2017), “O‘zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2019), “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019), “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish

kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2020) Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining “Ijtimoiy va iqtisodiy qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish to‘g‘risida”gi (2017) buyru’g‘i va sohaga oid boshqa qonun hujjatlari ham belgilangan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar ta’lim sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim o‘rin tutadi.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, 2010 yil 29 sentyabrdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunlari voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklari himoyasini ta’minlashda, ularning qarovsizligi va nazoratsizligi, huquqbuzarligi va jinoyatchiligiga qarshi kurashishda alohida o‘rin tutadi.

Jumladan, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 4- va 5-moddalarida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, bolaning hayoti va sog‘ligini muhofaza qilish, bolaning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik, bolaning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta’minlash, bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish kabi bir qator muhim vazifalar davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilangan bo‘lib, undan tashqari bola huquqlarini ta’minlash sohasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlari keltirilgan[4]. N.Do‘smuxamedova ta’biri bilan aytganda, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun xalqaro huquq normalari asosida yaratilar ekan, BMT Nizomi barcha davlatlar uchun xalqaro Konstitutsiya bo‘lgani kabi, ushbu Qonun ham bolalar uchun o‘ziga xos Konstitutsiya vazifasini o‘taydi[5]”.

Bizningcha, mazkur Qonun ta’lim muassasalari o‘quvchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda, sohaga doir qonunchilikni yanada takomillashtirish va mustahkamlashga, ularning huquqlarini ta’minlash borasida davlat idoralari faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berishda ahamiyatli hisoblanadi. Darhaqiqat, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan qonunning ta’lim muassasalarida qonunlarning bir xilda bajarilishini ta’minlashdagi ahamiyati yuqori bo‘lib, u orqali mazkur muassasa o‘quvchilarining ko‘plab huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

Fikrimizcha, ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda ta’lim yoshidagilarga nisbatan tatbiq etilgan kafolatlar, ularning maxsus huquqiy maqomidan kelib chiqib belgilangan. Shu bois, bola huquqlari kafolatlarini ta’minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim yoshidagi bolalarning maxsus huquqiy maqomi printsipi asosida amalga oshirilishi lozim.

Ta’lim muassasalari yoshlarining huquqiy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha qonun hujjatlari ustidan alohida huquqiy maqom

tamoyili asosida nazoratni amalga oshirishga qaratilgan bir qancha xalqaro hujjatlar (Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konventsiyasi[6] eng asosiylaridan bo‘lib, unda bolalar alohida muayyan huquqlarga ega shaxslar sifatida tan olinadi.

Bundan tashqari, “Bolalarni sotish, fo‘hishabozlik va bolalar pornografiyasi bo‘yicha Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konventsiya[7], Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) 182-sonli konventsiyasi[8], Evropa Kengashining “Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi konventsiyasi[9], “Bola huquqlari va farovonligi bo‘yicha Afrika Xartiyasi[10]”, “Osiyo mintaqasida bolalarni himoya qilish bo‘yicha deklaratsiya[11]) mavjud bo‘lib, ularning barchasida voyaga yetmaganlarning o‘ziga xos zaif tomonlarini va moslashtirilgan himoya hamda qo‘llab-quvvatlash zaruriyatini tan oladigan maxsus huquqiy maqom tamoyillari alohida xalqaro standart sifatida ta’kidlanadi.

Mazkur holatlarning xalqaro standart sifatida tan olinishi ta’lim yoshidagi voyaga yetmaganlarning boshqalarga nisbatan qo‘shimcha kafolatlarga muhtoj ekanligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Jamiyat ehtiyojlari rivojlanib borishi bilan, mamlakatimiz qonunchilik tizimi takomillashib bormoqda. Xususan, voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishning yangi institutlari joriy qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-sonli Farmoni voyaga yetmaganlarning huquqlari hamda kafolatlarini, ular o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olishning huquqiy asoslarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur Farmonga asosan, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili institutini ta’sis etildi hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) idoralararo komissiyalari tegishlicha Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya, Bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) komissiyalari etib qayta tashkil etildi.

Xususan, Bolalar masalalari bo‘yicha milliy hamda hududiy komissiyalar tarkibiga Bosh prokuror o‘rinbosari va tegishli hudud prokurorlari kiritildi. Ushbu islohotlar voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish mamlakatimiz ijtimoiy hayotining muhim sohalardan biri ekanligini ko‘rsatadi hamda alohida huquqiy tartibga solish va nazoratni amalga oshirish lozimligi haqidagi fikrlarimizni tasdiqlaydi. Fikrimizcha, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar faoliyatining qayta tashkil etilganligi voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, sohada qonun hujjatlari ijrosini sifatli ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Zero, komissiya faoliyati qayta tashkil etilgungacha, prokuratura organlari tomonidan 2021 yilning yanvar-oktyabr oylarida o‘tkazilgan tekshirishlarda 800 ga yaqin qonun buzilishi holatlari aniqlangan bo‘lib, prokuror protestiga

ko‘ra 100 ga yaqin qonunga zid hujjatlar bekor qilindi, 200 dan ortiq qonunga zid hujjatlar esa o‘zgartirilgan.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan Farmon bilan Vazirlar Mahkamasining shu’basi va Vazirlar Mahkamasi kotibiyatining hududiy tuzilmalariga ishga, qoida tariqasida, birinchi navbatda “psixologiya”, “yurisprudensiya” va “ijtimoiy” sohalari bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lgan fuqarolar qabul qilishi belgilandi. E’tirof etish lozimki, mazkur o‘zgarishlar voyaga yetmaganlar huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy asoslar jamiyat hayotining turli jabhalarni, jumladan, ta’lim sohasini boshqarish asoslarini o‘rnatuvchi asosiy ustunlar bo‘lib xizmat qiladi. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatida mazkur huquqiy asoslar prokurorlar tomonidan qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan:

Birinchidan, huquqiy asoslar ta’lim muassasalari ustidan prokuror nazoratini to‘g‘ri tashkil etishda poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ular ta’lim muassasalari amal qilishi kerak bo‘lgan qonunlar va qoidalarni belgilaydi. Xuddi shu ma’noda, prokurorlar ushbu huquqiy asoslarni aniq tushungan holda ta’lim muassasalari o‘z faoliyatida qonunchilik talablariga amal qilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu mazkur institutlar faoliyatida adolat, shaffoflik va javobgarlikni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, ta’lim muassasalari turli qonunchilik talablariga, jumladan, o‘quvchilar xavfsizligiga, davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlariga, moliyaviy tartib-qoidalarga rioya qilishlari kerak. Qonuniy asoslar prokurorlarga qonun hujjatlariga muvofiqlikni tekshirish uchun puxta tekshirishlar va baholashlar o‘tkazish imkonini beradi.

Uchinchidan, prokurorlar nazoratni huquqiy asoslar orqali amalga oshirib, ta’lim sohasida qonun ustuvorligini ta’minlashga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Bu ta’lim muassasalarining qonunchilik hujjatlariga qat’iy amal qilgan holda faoliyat yuritishini va nojo‘ya ta’sir yoki korruptsiyaning oldini olishini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, huquqiy asoslar ta’lim muassasalari faoliyatini doimiy takomillashtirish uchun zamin yaratadi. Qonunlar va me’yoriy hujjatlarni muntazam ko‘rib chiqish va yangilash orqali qonunchilik bazasi ta’lim sohasining o‘zgaruvchan ehtiyojlariga moslashishi mumkin.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

[1] Комилов А. Прокурор назорати амалиётида протест келтириш билан боғлиқ айрим масалалар // Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси Академияси Ахборотномаси, 2021, №2 (46) – Б. 54.

[2] Очилов А. Келажак бугундан бошланади // “Бола ҳуқуқларини таъминловчи бошқарув органларининг ҳуқуқий моҳияти ва уни такомиллаштириш истиқболлари” мавзусидаги республика халқаро илмий-амали йконференция

материаллари тўплами. - Т.: “RELY PRINT” нашриёти, 2012. – Б. 74.

[3] Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03/23/829/0208-сон. (мурожаат вақти: 12.05.2024 й.).

[4] Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 03/23/829/0208-сон. (мурожаат вақти: 12.05.2024 й.).

[5] Дўсмухамедова Н. Ўзбекистон миллий қонунчилигида боланинг ҳуқуқий мақоми // Вояга етмаганлар ва ёшларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тизими: муаммолар ва ечимлар мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. - Т.: KONSAUDITINFORM-NASHR нашриёти, 2008. – Б. 278.

[6] . (мурожаат вақти: 15.05.2023 й.).

[7] . (мурожаат вақти: 15.05.2024 й.).

[8] (мурожаат вақти: 15.05.2024 й.).

[9] https://rm.coe.int/1680084822. (мурожаат вақти: 15.05.2024 й.).

[10] . (мурожаат вақти: 15.05.2024 й.).

[11] . (мурожаат вақти: 15.05.2024 й.).